
JARAYON: YANGI O'QUV YILIGA TAYYORGARLIK ISHLARI OLIB BORILMOQDA

Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim tizimini zamon talablari asosida modernizatsiya qilish, maktab o'quvchilarining bilimi va ko'nikmalarini shakllantirish, darsliklar, o'quv metodik qo'llanmalarni zamon talablari asosida takomillashtirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, ayni kunlarda Respublikamizdagi barcha umumta'lim maktablarni yangi 2022-2023 o'quv yiliga yuqori darajada tayyorgarliklar ko'rish bo'yicha bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda.

Kuni-kecha Toshloq tuman xalq ta'limi bo'limi mudiri A.Soliyev tumandagi 5-, 6-, 7-, 39-umumta'lim maktablarida bo'lib, maktablarning yangi o'quv yiliga hamda kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik holati bo'yicha amalga oshirilgan ishlarni ko'zdan kechirdi. Maktablarni tevarak atroflari ozodaligiga alohida e'tibor qaratildi.

Aniqlangan kamchiliklar va qilinishi zarur bo'lgan ishlarni, qisqa muddatlarda bartaraf etish yuzasidan tegishli tavsiya va ko'rsatmalar berib o'tdilar.

2022-08-19 09:51:44